

O‘ZBEK TILINING QURILISH TERMINLARI, ULARNING MUQOBILLARI HAMDA QO‘LLANILISHIDAGI MUAMMO VA YECHIMLAR

Atadjan Ashirbayevich DJUMASHEV

Mustaqil tadqiqotchi

Alisher Navoiy nomidagi

o‘zbek tili va adabiyoti universiteti

Toshkent, O‘zbekiston

Djumashev1976@mail.ru

Annotatsiya

Maqolada keyingi davrda qurilish sohasi bo‘yicha atamalar, so‘z birikmalari, boshqaruv tizimi leksik qatlamiga doir so‘zlar aksariyat hollarda rus va boshqa tillardan qanday olingan bo‘lsa o‘zgarishlarsiz qabul qilinganligi haqida so‘z boradi. Zamonaviy tilshunoslikda terminlar tarjimasida ularning muqobil variantlarini izlash, ekvivalentlarini aniqlash atroflicha o‘rganilmoqda. Terminlar tarjimasida tarjima usullarini mos holatda qo‘llash tushuncha va matnning to‘liq mohiyatini ifodalashi haqida so‘z yuritiladi.

Tayanch so‘zlar: arxitektura, leksik qatlam, leksik ma’no, qurilish ishlari, muhandislik, dizayn, qurilish texnologiyasi, me’morchilik, qirg‘ich.

ТЕРМИНЫ ПО СТРОИТЕЛЬСТВУ УЗБЕКСКОГО ЯЗЫКА, ИХ АЛЬТЕРНАТИВЫ, ПРОБЛЕМЫ И РЕШЕНИЯ ПРИ ИХ ИСПОЛЬЗОВАНИИ

Атаджан Аширбаевич ДЖУМАШЕВ

Независимый исследователь

Университет узбекского языка и литературы

им.Алишера Навои

Ташкент, Узбекистан

Djumashev1976@mail.ru

Аннотация

В статье речь идет о том, что в последнее время термины, словосочетания, слова, относящиеся к лексическому слою системы управления в сфере строительства, в большинстве случаев были взяты из русского и других языков без изменений. В современном языкознании при переводе терминов изучается поиск их альтернативных вариантов и определение их эквивалентов. Рассматривается, что применение соответствующих методов при переводе терминов, выражает полное содержание понятия и текста.

Ключевые слова: архитектура, лексический пласт, лексическое значение, строительные работы, инженерия, проектирование, технология строительства, архитектура, скрепер.

Bugungi kunga kelib yurtimizda qurilish sohasi jadal rivojlanib kelmoqda. Shu bilan bir qatorda qurilish, arxitektura hamda muhandislik sohalariga oid xorijiy

tillardan o'zbek tiliga yangi terminlar kirib kelyapti. Bu kabi terminlarni tilimizda ba'zan muqobil variantini qo'llashimiz mumkin, ba'zan muqobili bo'lmagan atamaning o'zini qo'llashga to'g'ri kelyapti. Shunday ekan, sohadagi shu singari muammolarning yechimini topishda jahon hamda dunyo axborot manbalaridan keng foydalanish dolzarb masalalardan biri bo'lmoqda.

Yurtimizda davlat tilini yanada rivojlantirish hamda takomillashtirish borasida amalga oshirilayotgan tadqiqotlarda haligacha qurilish sohasiga oid terminlarni rus tilida qo'llanilishi hamda o'quv muassasalarimizda ham rus tilida berilishi kuzatildi. Bu esa, o'z navbatida, bo'lajak mutaxassislarimizga qiyinchiliklar tug'dirib kelmoqda. Bundan bilishimiz mumkinki, biz tilimizning rivoji uchun juda ko'p sohalarda ko'plab islohatlar o'tkazishimiz kerak.

Terminologiya leksikaning bir sohasi bo'lib, muayyan fan, texnika, ishlab chiqarish tarmog'ining, san'at, ijtimoiy faoliyat sohasining tegishli tushunchalar tizimi bilan bog'liq bo'lib, terminlarni o'rganuvchi soha sanaladi. O'z navbatida, u umumxalq tilining boyishiga xizmat qiladi. Terminologik leksika umumxalq tili leksikasining ajralmas qismi sifatida u bilan birga rivojlanadi. Jamiyat va til taraqqiyotidagi barcha jarayonlarni boshdan kechiradi. Ma'lum bir soha yoki fan yuqori darajada taraqqiy etgandagina o'sha tilda maxsus terminologiya vujudga keladi.

Tilshunoslikda atama muammosi bir necha yillardan beri muhokama qilinib kelmoqda. Terminning mohiyatini talqin qilishdagi farqli fikrlarga qaramay, atamani ilmiy-texnik tushunchani bildiruvchi nominativ birlik sifatida tushunish barcha tadqiqotchilar uchun umumiydir.

Terminologiyaning boyishi, rivojlanishi yo'llari har xil. Masalan, boshqa tillardan so'z olish, yangi so'z yasash yoki ayrim grammatik kategoriyalarning leksikalashuvi, so'z birikmasining semantik bir butun holga kelib qolishi va boshqa. Bugungi kunda o'zbek terminologiyasining boyishi, asosan, boshqa tillardan so'z olish va ichki so'z yasash hisobiga ro'y bermoqda.

Ma'lumki, texnika, texnologiya, fan sohalaridagi har qanday yangilik, kashfiyot birinchi navbatda, leksikada o'z aksini topadi. Har qanday yangi kashf

qilingan ixtiroga nom qo'yiladi. Bu, o'z navbatida, tilda yangi atamalarning shakllanishiga asos bo'ladi. Bu ilmiy-metodologik qobiliyat qurilish sohasi bilan bog'liq leksik qatlamga ham tegishli sanaladi.

Qurilish terminologiyasini hozirgi davr holatida o'rganish dolzarb masalalardan biri sanaladi. Chunki qurilish terminologiyasidagi atama shakllanishining so'nggi jarayonlari va yangi atamalar majmuasi leksikograflar tomonidan yetarlicha tahlil qilinmagan, qayta ishlanmagan va faoliyat sohasi doirasida o'rganilmagan.

Butun dunyoda bo'layotgani singari bizning mamlakatimiz shahar va qishloqlarida qurilish sohasi bo'yicha ulkan bunyodkorlik ishlarining qizg'in kechayotganligi tufayli keyingi yillarda arxitektura, dizayn, muhandislik, qurilish texnologiyasi kabi sohalarga ko'plab yangi tushunchalar, terminlar, iboralar kirib kelmoqda. Qator leksik birliklar muqobillarsiz jarayonda ommalashmoqda. O'zbek tiliga xorijiy tillardan qurilishga oid muhandislik va arxitektura bo'yicha yangi atamalar kirib kelmoqda. Bu kabi atamalarning ba'zan tilimizda muqobil variantini qo'llashimiz mumkin, ba'zan esa aksincha, ya'ni muqobili bo'lmagan atamaning o'zidan foydalanishga to'g'ri keladi.

Agar tilimiz tarixiga murojaat qilsak, qadimda mamlakatimizda qurilish sohasining ajralmas bir qismi bo'lgan me'morchilik sohasi terminlari o'z davrida yaxshi shakllangan. Bu mavzu bo'yicha qator ilmiy tadqiqot ishlari va maqolalar yozilgan [1;126]. Mamlakatimizda qurilish sohasi o'tgan asrning 60-yillaridan boshlab jadal sur'atlar bilan rivojlana boshladi. Tilimizga rus tili orqali ko'plab qurilish sohasi bilan bog'liq terminlar kirib keldi. Masalan, *armature*, *arxitektor*, *balkon*, *kafel* va boshqalar.

Bugungi kunda o'zbek tilidagi qurilish atamalarining asosiy qismi rus tilidan hamda u orqali boshqa tillardan o'zgarishsiz o'zlashtirilgan. Masalan, *sement*, *beton*, *kran*, *kvartira*, *balkon*, *pol* va *hokazo*. Birinchi navbatda, bunday atamalar bilan ifodalangan tushunchalarning o'zbek tilida yo'qligi bilan bog'liq. Bunday hollarda atamalarni to'g'ridan-to'g'ri o'zlashtirish lozim.

O'tgan davr mobaynida qurilish sohasi bo'yicha atamalar, so'z birikmalari, boshqaruv tizimi leksik qatlamiga doir so'zlar aksariyat hollarda rus va boshqa tillardan qanday olingan bo'lsa o'zgarishlarsiz qabul qilindi. Ularning muqobilini yaratishda juda sustkashlikka, beparvolikka yo'l qo'yilgan.

Boshqa sohalarda bo'lgani kabi qisqartma (abbreviatura)lar mazkur sohaga ham tegishli bo'lib, o'rganish jarayonida ayrim misollarga to'xtalib o'tishni lozim deb topdik. Qurilish sohasining bevosita boshqa soha terminologiyasi, xususan, mashinasozlik, energetika, texnika va boshqalar bilan bog'liqligi ma'lum. Xususan, *Boshqarishning texnologik obektlari (BTO)*, *Markaziy boshqaruv pulti (MBP)*, *Texnik ishchi loyiha (TIL)*, *Avtomatik loyihalash tizimlarini (ALT)*, *Qurilish me'yorlari va qoidalari (SNIp)* va boshqalarni eslash kifoya. Bugungi zamonaviy qurilish jarayoni boshqaruv tizimida juda keng qo'llaniladigan qisqartmalar bo'lib, ularning ayrimlari tilimiz lisoniy qoidalariga mos holda shakllangan bo'lsa, ayrimlari munozarali hisoblanadi. *Texnik ishchi loyiha (TIL)* kabi shakllangan qisqartmalar adresatga beradigan axborotning noaniq bo'lib qolishiga olib keladi (Quyidagi rus tilidan o'zlashgan *ябычок* terminiga to'xtalib o'tamiz). Bu, o'z navbatida, kalka shaklida qisqartmalarni shakllantirish har doim ham ijobiy emasligini ko'rsatadi. Yana bir misol *Qurilish me'yorlari va qoidalari (SNIp)* o'tgan asrdan buyon bu qisqartma rus tilida qanday shakllangan bo'lsa shu holatda me'yoriy hujjatlarda va og'zaki nutqda shu holada qo'llanilib kelmoqda. Ayrim hujjatlarda esa QMQ shaklida ishlatilganini kuzatishimiz mumkin.

Tarjima ko'plab muammolarni yechishda, turli xil tilda so'zlashuvchi millat va elatlarning bir-birini tushunishida, to'g'ri anglashda hamda texnologiya va turli sohalarni yanada rivojlantirish uchun tajriba almashinuvida katta bir kuch, ko'prik va albatta, eng muhim aloqa vositasi sifatida xizmat qiladi. Shunday ekan, avval "tarjima" tushunchasi haqida bir necha olimlar bergan fikrlarni atroflicha talqin etamiz. Shotlandiyalik buyuk tarjimashunos olim Djon Ketfordning fikricha, "Tarjima – bu bir tildagi matnning ikkinchi bir tildagi o'rnini bosa oladigan ekvivalentidir". V.N.Komissarov "tarjima"ga tillararo muloqotda matnning asliga muvofiq ekvivalentini aniqlash deb izohini bermoqda. Demak, tarjima jarayonida

tarjima qilinayotgan tildan muvofiq ekvivalent izlash, ushbu ekvivalentni matnda tushunarli tarzda ifodalash kabi masalalar muhimligi hamda tarjimondan maxsus ko‘nikma talab qilinishi anglashiladi.

Bugungi kun tilshunosligida terminlar tarjimasini, ularning muqobil bo‘lgan variantlarni izlash, ekvivalentlarini aniqlash atroflicha o‘rganilmoqda. Texnika va texnologiyalar rivojlanishi qurilish terminologiyasining kengayishiga va ularning tarjima masalalariga alohida e‘tibor berishni talab qiladi. Terminlar tarjimasida tarjima usullarini mos holatda qo‘llash tushuncha va matnning to‘liq mohiyatini ifodalashga zamin yaratadi.

Rus tilshunosligida G.O.Vinokur va D.S.Lottelarning qimmatli ilmiy asarlaridan boshlab atamashunoslik masalalari doimo tilshunoslar nazarida bo‘lib kelmoqda. Olib borilgan ilmiy ishlar orasida tadqiqot obyekti qurilish atamalari bo‘lgan ishlar ham talaygina. Arkadyeva, V.A.Egorov, N.I.Shashkinalar qurilish tizimida qo‘llanilgan atamalarning leksik va semantik xususiyatlari, R.R.Masharipov bir asosli terminlar tavsifi, S.V.Grinyev esa Kanada va Rossiya qurilish tarmoqlarida qo‘llaniladigan atamalar orqali qurilish va me‘morchilik bo‘yicha ingliz va rus qurilish terminologiyasining qiyosiy tahlili bo‘yicha atroflicha ilmiy izlanishlar olib borganlar.

O‘zbek tilshunosligida esa M.B.Allanyazovning “Arxitektura-qurilish mutaxassisleri uchun inglizcha-ruscha-o‘zbekcha atamalar lug‘ati” uslubiy qo‘llanmasi, R.O‘.Shukurov, K.X.Omonov, M.R.Tojixo‘jayevalarning “Qurilish mashinalar fanidan glossariy” o‘quv qo‘llanmasi, T.A.Otaqo‘ziyev, R.O.Mirzayevlarning “Qurilish materiallariga oid ruscha-o‘zbekcha izohli lug‘at” kitobi nashr etilgan va bu boradagi ishlar orasida o‘z ahamiyatiga ega. Shuningdek, M.A.Kuchiboyevning mazkur yo‘nalishda olib borgan tadqiqotlari ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Qurilish sohasida hamda me‘morchilikda keng qo‘llaniladigan atama “Arka” so‘zi hammamizga ma‘lum, ammo uni o‘zbek tilidagi muqobili “ravoq” so‘zi ekanligini hamma ham bilmaydi [4;45]. Bunday atamalarning o‘zbek tilida ekvivalenti borligiga qaramasdan, hamon rus tilidan kirib kelgan “арка” atamasining

qo‘llanilishi, sohaga oid adabiyotlarning asosan rus tilida mavjudligidan dalolat beradi.

Muhandislikda ko‘p qo‘llaniladigan “гайка” atamasi rus tilidan kirib kelgan bo‘lib, texnika va muhandislik sohalarida juda keng qo‘llaniladi. Afsuski, hanuzgacha tilimizda uning muqobil varianti mavjud emas. Ingliz tilida esa bu atama “Nut” so‘zi bilan ifodalanadi. Ammo “Nut” so‘zi asosan yong‘oq degan ma’noda qo‘llanilishini hisobga olib, tarjimada e’tiborliroq bo‘lish talab etiladi. Aks xolda qo‘pol xato kelib chiqishi mumkin [2;112].

Bundan tashqari yana ko‘p qo‘llaniladigan ruscha so‘zlardan biri “овал” so‘zi bo‘lib, inglizcha “oval” – aylana degan ma’noni bildiradi. Me’morchilik bo‘yicha soha mutaxassislari tomonidan hamda bo‘lajak mutaxassislar – talabalar tomonidan ham bu so‘z boshqalari kabi keng qo‘llaniladi.

Mamlakatimizda zamonaviy shaharsozlik jadal sur’atlar bilan rivojlanayotgan bugungi kunda xorijiy texnologiyalar, xorijiy mutaxassislar, kompaniyalar faoliyat ko‘rsatmoqda. Bir paytlar qurilish va boshqa sohalar bo‘yicha adabiyotlar, yo‘riqnomalar, terminlar rus tili orqali kirib kelgan bo‘lsa, hozirda to‘liq ingliz va boshqa tillardan so‘zlar to‘g‘ridan-to‘g‘ri o‘zlashmoqda. Quyidagi qurilish terminlariga e’tiborimizni qaratamiz: *Shaber/ Scraper* rus va ingliz tillarida bo‘lib, o‘zbek tilida tarjimasi *qirg‘ich* deb berilmoqda [6;969-973]. Lekin qurilish termini sifatida ushbu so‘z qurilishga oid termin ma’nosini to‘liq ifoda eta olmaydi. Shuning uchun biz rus tilida berilgan *shaber* terminini o‘zbek tiliga transliteratsiya usuli yoki *metall buyumlar sirtini tarashlab, tekislaydigan asbob* ma’nosida anglaymiz. Masalan, qurilish termini bo‘lgan quyidagi so‘zlar “язычки” (расположенные в частом мерном ритме узкие ступенчатые *кронштейны* (обычно кирпичные), поддерживающие карниз) – “*tongues*” (narrow, stepped, located in a frequent, measured rhythm brackets (usually brick) supporting the cornice) – *tishchalar* (karnizni qo‘llab-quvvatlaydigan, tez-tez o‘lchanadigan ritmda joylashgan tor pog‘onali qavslar (odatda g‘isht). Biz o‘zbek tilida ushbu terminning muvofiq ekvivalentini izlab, rus va ingliz tillarida berilganday tilchalar emas, balki tishchalar so‘zini taklif qilamiz. Lekin qurilish sohasida o‘zbek tilida

nemis tilidan kirib kelgan *kronshteyn* soʻzi qoʻllanadi. Biz mazkur terminga oʻzimizning variantimizni oʻzbek tilida taklif qilib, terminlar qoʻllanishida oʻzbek tili sohiblari uchun oson talaffuz qilinadigan muqobil variantlaridan foydalanganimiz maʼqulroq deb hisoblaymiz. Chunki quruvchilar hamda qurilish materiallaridan foydalanuvchilar terminlar qoʻllashda rus va ingliz tilidan kirib kelgan terminlarni oʻzbek tili talaffuzidan kelib chiqib yondashganda koʻp slenglar vujudga kelgan. Masalan: rus tilidan kirib kelgan va qurilishda qoʻllanadigan soʻz birikmasi *без несчунки* oʻzbek tilida *bespechonka* deb ifoda qilinadi. Albatta, ushbu noaniqliklarni tildan bartaraf qilish tarjimaning asosiy vazifalaridan biri hisoblanadi.

Shunday ekan, ona tili leksik qatlamini doimiy kuzatish, nazorat qilish, hayotiy jarayon tufayli sohalar muomala-munosabatida kechayotgan leksik rivojini oʻrganish, leksik qatlamni boyitish hamisha tilshunoslikning dolzarb vazifalaridan biri hisoblanadi. Shu yoʻnalishidagi faoliyatning bugungi kunda taqazo etilayotgan muhim ilmiy obyektlaridan biri bu qurilish sohasidir.

Yangi tushuncha, termin, ibora, nomlanishlarning, *Skapula*, *Mezanina*, *Veranda* singari oʻnlab neologizmlarning muhimlashish, oʻrnashish-oʻrnashmaslik masalalarini tayin estishda fanimiz ishtirokini faollashtirish lozim. Ayniqsa, soha mutaxassislarining hamkorligida muqobillarini topish va joriylashning tilimiz leksik qatlamini boyitilishidagi ahamiyat kattadir.

Xulosa qilib aytganda, shiddat bilan rivojlanib borayotgan oʻzbek tilining leksikasidagi qurilish sohasiga oid terminlar shakliy va mazmuniy tomondan yetarli darajada oʻrganilmagan. Terminlarni oʻz holicha isteʼmolda qoldirish yoki ularga muvofiq muqobillarni topish va isteʼmolga kiritish, terminlar tarjimai jarayonini oqilona yoʻlga qoʻyish, terminlar mohiyatini toʻlaligicha beradigan muqobillarni yaratish, bu borada tilshunoslikning samarali usullaridan foydalanib, sohaviy terminologiyani rivojlantirish bugungi oʻzbek tilshunosligining dolzarb vazifalaridan biridir. XXI asrda adabiy til meʼyorlari va xalq kundalik hayotidagi zamonaviy soha va yoʻnalishlar leksikasi oʻzaro muvofiqlashtirilmas ekan oʻzbek

tilidagi ilmiy-texnik adabiyotlarni yaratish ham murakkab masala sifatida qolaveradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Даниленко В.П., Скворцов Л.И. Теоретические и практические аспекты нормализации научной терминологии. – Москва, 1980.
2. Комиссаров В.Н. Теория перевода. Center www.innacademy.uz Volume 1 Issue 7, October 2021 ISSN 2181
3. Samig'ov N.A., To'laganov A.A., Komilov X.X. Bino va inshootlar restavratsiyasi. – Toshkent, 2002.
4. Турсунова Т. Меъморлик терминларининг лексик-грамматик тадқиқи. – Тошкент: Фан, 1987. – 126 б.
5. Шукуров Р. У., Омонов К. Х., Таджиходжаева М. Р. Қурилиш машиналари фанидан глоссарий: ўқув қўлланма. – Тошкент, 2019.
6. Madaliyevna, I. S., Khasanovna G. D. (2021). Comparative study of “assessment system” in the semantic field of “education”. ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal, 11(5), 969-973.
7. Timirov A.M. English for engineering constructions (conversation practice) – Samarqand: Turon nashr, 2021. – 112 в.